

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SPORT VAZIRLIGI

**JISMONIY TARBIYA VA SPORT BO‘YICHA MUTAXASSISLARNI
QAYTA TAYYORLASH VA MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI
NUKUS FILIALI**

**« JISMONIY TARBIYA, SPORT NAZARIYASI VA
USLUBIYATI» KAFEDRASI**

“JISMONIY TARBIYA INSTRUKTORI”

YO‘NALISHI

“PEDAGOGIK AMALIYOT”

moduli bo‘yicha

O‘QUV–USLUBIY MAJMUA

Nukus – 2024

Mazkur o'quv-uslubiy majmua O'zbekiston Respublikasi Sportni rivojlantirish vazirligining 2022 yil _____ -sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan o'quv reja va dasturlar asosida tayyorlandi.

Tuzuvchi: **O.Omirzakov** Nukus filiali «Jismoniy tarbiya, sport nazariyasi va uslubiyati» kafedrasida o'qituvchisi

Taqrizchi: **S.Toylibayev** – O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali Yakka kurash va tabiiy fanlar kafedrasida mudiri.

O'quv-uslubiy majmua Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti Ilmiy Kengashining 20__ yilda _____ da o'tkazilgan _____-sonli qarori bilan nashrga tavsiya qilingan

Modulning maqsadi va vazifalari

Modulning maqsadi: Maktabgacha ta'lim tashkiloti jismoniy tarbiya instruktorlari malakasini oshirish kursining maqsadi ochiq ma'ruzalar va amaliy mashg'ulotlar o'tkazish, o'tilgan mashg'ulotlarni muhokama qilish vatanqidiy tahlil etilishiga yo'naltirilgan bo'lib, u pedagog kadrlarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishdan iborat.

Modulning vazifalari:

maktabgacha ta'lim ma'muriyati va jamoasi faoliyati, tashkiliy strukturasi hamda tizimi bilan tanishish;
o'z mutaxassisligi bo'yicha mashg'ulotlarni kuzatish va tahlil qilish;
maktabgacha ta'lim hayotida faol ishtirok etib, ilg'or pedagog va tarbiyachi ish tajribalarini tahlil qilish, tarbiyaviy ishlarni rejalashtirishga oid talab va yo'llarni o'rganish bo'yicha kasbiy ko'nikma va malakalarni takomillashtirishga qaratilgan.

Modul bo'yicha tinglovchilarning bilimi, ko'nikmasi, malakasi va kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar

“Pedagogik amaliyot” modulini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

Tinglovchi:

modulini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida tinglovchilar:

tarbiyaviy ishlarni tashkil etish va o'tkazish metodlaridan foydalanish;

jismoniy tarbiya va ommaviy sport sog'lomlashtirish tadbirlarini tashkil etishni;

maktabgacha ta'lim tashkilotlarida sport musobaqalarini tashkillashtirish va o'tkazishni;

maktabgacha ta'lim tashkilotlarida jismoniy tarbiya mashg'ulotida o'quv metodik hujjatlar bilan ishlashni bilishi;

maktabgacha ta'lim tashkilotlarida mashg'ulotdan tashqari ishlarini tashkil etishni samarali tashkil qilishni;

jismoniy tarbiya mashg'ulotida texnika havfsizligi qoidalariga

asosan tashkil etishni;- jismoniy tarbiya mashg'ulotlariga tayyorgarlik, mashg'ulot ishlanmasi (konspekt) va tahlil (pedagogik tahlili) qilishning zamonaviy uslublardan foydalana olish ko'nikma va malakalariga ega bo'lishi lozim.

Modulning o'quv rejadagi boshqa modullar bilan bog'liqligi va uzviyligi

Modul mazmuni o'quv rejadagi "Jismoniy tarbiyasi nazariyasi va uslubiyoti", "Boshlang'ich gimnastika mashg'ulotlarini o'tkazish uslubiyoti", "Jismoniy tarbiya va sportda ilg'or xorijiy tajribalar", "Olimpiya bilim asoslari" "Harakatli o'yinlarni o'qitish uslubiyoti" kabi o'quv modullari bilan uzviy bog'langan holda tinglovchilarning kasbiy tayyorgarlik darajasini orttirishga xizmat qiladi.

Modulning sport ta'limidagi o'rni

Modulni o'zlashtirish orqali tinglovchilar maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning jismoniy sifatlarini rivojlantirish, yosh va psixologik xususiyatlarini o'rganish, amalda qo'llash va baholashga doir kasbiy kompetentlikka ega bo'ladilar.

Modul bo'yicha soatlar taqsimoti:

T/r	Modul mavzulari	Tinglovchining o‘quv Yuklamasi, soatlari					
		Xammasi	Auditoriya o‘quv Yuklamasi				Mustakillay tayyorlik
			Jumladan				
			Jam'i	Nazariy	Amaliy mashg'ulot	Kuchma shx ulot	
1.	Pedagogik amaliyot maqsadi va vazifalari	2			2		
2.	Jismoniy tarbiya mashg‘uloti ishlanmasi va tahlil usillari	4			4		
3.	Jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarini o‘tkazishda bolalar xavfsizligini ta’minlash chora tadbirlari va xavfsizlik qoidalari	2			2		
4.	Pedagogik amaliyot davrida tarbiviy vaziyatlar va bolalar bilan ishlash jarayonida tarbiyasning shakillari bilan tanishish va tahlil qilish	2			2		

5.	Pedagogik amaliyot yakuni bo'yicha hisobotlarni rasmiylashtirish	2			2		
	Jami:	12			12		

AMALIY TA'LIM MAZMUNI

1-Mavzu. Pedagogik amaliyot maqsadi va vazifalari

Maktabgacha ta'lim tashkiloti va jamoasi faoliyati, tashkiliy strukturasi bilan tanishish, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ilg'or pedagog va jismoniy tarbiya instruktorlarining ish tajribalarini tahlil qilish, tarbiyaviy ishlarni rejalashtirishga oid talablarini o'rganish, maktabgacha ta'lim sport maydonchalari va zallarini jihozlashni, hamda ulardan foydalanishni o'rganish, o'z mutaxassisligi bo'yicha mashg'ulotlarni kuzatib tahlil qilishni o'rganish.

2-Mavzu. Jismoniy tarbiya mashg'ulotlarining konspekti va tahlil usullari

Jismoniy tarbiya mashg'ulotining konspekti, bolalarga berilayotgan jismoniy yuklamasini aniqlash maqsadida yurak-qon tomir urishini o'lchash protokoli, jismoniy tarbiya mashg'uloti bo'yicha tajribali jismoniy tarbiya instruktorlar jismoniy tarbiya mashg'ulotining pedagogik tahlili, mashg'uloti zichligini aniqlash maqsadida xronometraj protokoli,-pedagogik amaliyot yakunida tinglovchi hisobotni amaliyot rahbariga taqdim etish.

3-Mavzu. Jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini o'tkazishda bolalar havfsizligini ta'minlash chora tadbirlari va havfsizlik qoidalari

Jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini o'tkazishda bolalar havfsizligini ta'minlash chora tadbirlari va havfsizlik qoidalari. Sog'lomlashtirish-jismoniy tarbiya tadbirlarida havfsizlik qoidalari.

4-Mavzu. Pedagogik amaliyot davrida tarbiyaviy vazifalar

Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilari bilan o'tkaziladigan jismoniy tarbiya mashg'ulotlaridagi vazifalarni amalga oshirish ilmiy asosda tuzilgan va uslubiy jihatdan puxta tayyorlangan mashg'ulot konspektiga bog'liq. Jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida tarbiya, sog'lomlashtirish va o'rgatish vazifalari bir-biriga bog'liq holda hal qilinadi. Shuning uchun jismoniy tarbiya instruktori mashg'ulot oldiga aniq vazifalar qo'yishni jismoniy tarbiya tizimining umumiy vazifalariga amal qilgan holda aniqlaydi.

5-mavzu. Pedagogik amaliyot yakuni bo'yicha hisobotlarni rasmiylashtirish
Pedagogik amaliyot davrida tarbiyaviy vazifalar, bolalar bilan ishlash

jarayonida tarbiyaning shakllari. Pedagogik amaliyot bo'yicha yakuniy hisobotlar yozish. Pedagogik amaliyotning mazmuni va uni tashkil etishni takomillashtirish borasidagi taklif va mulohazalar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abdullaev A., Xonkeldiev SH. Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi. –T.: Navro'z, 2018.
2. Salomov S.R. Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati. 1 – jild. – T.: ITA – PRESS, 2015
3. Salomov S.R., Sharipov K.A. Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati 2 – jild. - T.: ITA – PRESS, 2015.
4. Goncharova O.V. Bolalar jismoniy sifatlarini tarbiyalash. – T.: ITA – PRESS, 2015.
5. Azizov N.N. Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati. - T.: ITA – PRESS, 2014.
6. Tulenova X., Xo'jaev P., Xo'jaeva M., Meliev H. Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi. 1 – jild. – T.: Iqtisod-moliya, 2012.
7. Tulenova X., Xo'jaev P., Xo'jaeva M., Abdullaev D. Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi. 2 – jild. – T.: Iqtisod-moliya, 2012.
8. Arslonov Q.P, Abdullayev Sh.D, Ibragimov M.B. Jismoniy madaniyat darslarida innovatsion texnologiyalardan foydalanish.– T.: Durdona, 2016.
9. Rahmonov P.F. Jismoniy tarbiya o'qituvchisining faoliyati.–T.: ITA – PRESS, 2016.

Internet saytlari

[www. lex. uz](http://www.lex.uz)

[www. ziynet. uz](http://www.ziynet.uz)

[www. sport. uz](http://www.sport.uz)

AMALIY TA'LIM MAZMUNI

1-Mavzu. Pedagogik amaliyot maqsadi va vazifalari

Tayanch tushunchalar: Dastur, sport, maktabgacha ta'lim, chaqqonlik, epchillik, sabr qanoat, jismoniy rivojlanish, jismoniy tarbiya, o'yin faoliyati, jismoniy harakat.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti va jamoasi faoliyati, tashkiliy strukturasi bilan tanishish, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ilg'or pedagog va jismoniy tarbiya instruktorlarining ish tajribalarini tahlil qilish, tarbiyaviy ishlarni rejalashtirishga oid talablarini o'rganish, maktabgacha ta'lim sport maydonchalari va zallarini jihozlashni, hamda ulardan foydalanishni o'rganish, o'z mutaxassisligi bo'yicha mashg'ulotlarni kuzatib tahlil qilishni o'rganish.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti instruktorlari pedagogik amaliyot jarayonida amaliyot olib boriladigan maktabgacha ta'lim tashkiloti jamoasi faoliyati, tashkiliy strukturasi bilan tanishadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi ilg'or pedagog va jismoniy tarbiya instruktorlarining ish tajribalarini tahlil qiladi va amaliyotchi tinglovchilar xar biri bitta dars yoki darsning bir qismini o'tadi. Har bir dars o'tilib bo'lingannan sung darslar tanhidiy tahlil qilinadi. Tinglovchilar fikirlari tinglanadi va muhokama qilinadi. Tarbiyaviy ishlarni rejalashtirishga oid talablar o'rganiladi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti sport maydonchalari va sport zallari bilan tanishadi va jihozlarning tug'ri o'rnatilishini o'rganadi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti instruktorlari jihozlardan tug'ri foydalanishni o'rganadi. o'z mutaxassisligi bo'yicha mashg'ulotlarni kuzatib tahlil qilishni o'rganish. Pedagogik amaliyot nazariy va amaliy mashg'ulotlar shaklida olib boriladi. Amaliy mashg'ulotlarda texnik vositalardan, ekspress-so'rovlar, test so'rovlari, aqliy hujum, guruhli fikrlash, kichik guruhlar bilan ishlash va boshqa interaktiv ta'lim usullari nazarda tutiladi.

1.1. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagogik amaliyotda jismoniy tarbiya mashg'ulotlarining maqsad va vazifalari.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim-tarbiya berishning asosiy maqsadi yosh avlodni jismonan sog'lom, aqlan etuk, ma'naviy boy, har tomonlama rivojlangan shaxs sifatida tarbiyalash va maktab ta'limiga tayyorlashdan iboratdir. Maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashning vazifalari jismoniy, aqliy, ahloqiy, estetik, mehnat tarbiyasini berish va ularning tug'ma layoqati, qiziqishi, ehtiyoji va imkoniyatlarini hisobga olgan holda, milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida muntazam (maktabga) tayyorlashdan iboratdir. Maktabgacha ta'lim muassasalarida o'tkaziladigan jismoniy tarbiya mashg'ulotlarining maqsadi va vazifalari bolalardagi turli jismoniy rivojlanishni ko'nikma va malakalarini shakllantirish, ulardagi kuchlilik, tetiklik, chaqqonlik, ziyraklik kabi jismoniy sifatlarni rivojlantirishdan iboratdir. Muntazam ravishda o'tkaziladigan jismoniy mashg'ulotlar bolalarning o'sish va rivojlanish jarayoniga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Jismoniy rivojlanish – odam organizmi shakl va funksiyalarining o'zgarish jarayonidir. «Jismoniy rivojlanish» termini tor ma'noda qo'llaniladi, bunda u antropometrik va biometrik ko'rsatkichlarni anglatadi, chunonchi: gavda, bo'y, og'irligi, ko'krak qafasi aylanasi, o'pkalarning tiriklik sig'imi, umurtqa pog'onasi egikligining darajasi, qaddi-qomatning jismoniy holati, kurak uchlari orasidagi

masofa, tavon gumbazi o'ldiruvining ko'rsatkichi, o'ng va chap panja mushaklari kuchi, tik tura olish kuchi va boshqalar. «Jismoniy rivojlanish» terminini keng ma'noda qo'llaganda, unga jismoniy sifatlar(tezkorlik egiluvchanlik, muvozanat saqlay olish, ko'z bilan chamalash, kuch, chidamlilik) ham kiritiladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni jismoniy tarbiya mashg'ulotining maqsadlari quyidagilardir:

1. Bolani salomatligini mustahkamlash;
2. Bolani jismonan baquvvatlashtirish;
3. Bolalarni ahloqiy sifatlarini tarbiyalash.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni jismonan tarbiya vazifalari:

1-vazifa. Bolalarni maqsadga to'g'ri yo'naltirilgan harakatlarni faollashtirish uchun shart-sharoit yaratish.

maktabgacha ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya xonalarini, maydonchalarini kerakli jihozlar bilan etarli qilib ta'minlash.

2- vazifa. Harakatning hayot uchun muhim turlarini shakllantirish: Yurish, Yugurish, emaklash, sakrash, o'rmlash, otish, ilib olish, suzish, velosipedda uchish, oyoq, qo'l, tana, bosh harakatlarini rivojlantirish. Bolalarni yosh hususiyatlaridan kelib chiqqan holda jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini bolalarga qiziqarli metodlar yordamida tashkil etishni rejalashtirish.

3- vazifa. Saflanish va qayta saflanish. Bu harakat maktabgacha ta'lim muassasalaridagi mashg'ulotlarning boshidan to yakunigacha davom etadi.

4- vazifa. O'yin harakatlarini kengaytirish va chuqurlashtirish, jismoniy sifatlarini rivojlantirish, chaqqonlik, epchillik, ziyraklik, irodalilik, sabr-qanoat, kuchlilik shu bilan birga gvardani tik tutish malakalarini oshirish; Jismoniy tarbiya mashg'ulotlarining asosiy, yakuniy qismlarida tashkil etiladigan harakatli hamda kam harakatli bir nomdagi o'yinlar o'ynalish jarayonini bolalarni yosh hususiyatlaridan kelib chiqqan holda murakkablashtirib borish.

5- vazifa. Bolalar qomatlarini to'g'ri shakllantirishga ta'sir ko'rsatish va yassi oyoqlilikni oldini olish. Maktabgacha ta'lim muassasalarida tashkil etiladigan jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida bola qomatini va yassi oyoqlilikni oldini olishga ta'sir etuvchi mashqlarni qo'llash.

6-vazifa. Faol harakatga bo'lgan qiziqishni tarbiyalash.

7-vazifa. Jismoniy mashq va o'yinlarning foydasi haqida, asosiy gigienik talablar va qoidalar haqida etarli darajada tasavvur va bilimlar berish.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini jismoniy tarbiya yo'riqchisi olib boradi va barcha guruhlar uchun mashg'ulot ishlanmalarini 08-02 raqamdagi ish rejasida bir yil uchun 72 mashg'ulot ishlanmasini shakllantiradi.

1.2. Maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy sifatlarini rivojlantirish.

Bolalarning harakatli faoliyati ularda asosiy jismoniy sifatlarni rivojlantirish bilan bog'liqdir. Bunga chaqqonlik, epchillik, kuchlilik, matonat singari sifatlar kiradi. Amalda mazkur sifatlarning hech birini alohida olib rivojlantirishni tasavvur qilish ham mumkin emas. Turli jismoniy sifatlarni tarbiyalash aslida bolaning jismoniy jihatdan har tomonlama rivojlanishidek yagona jarayonning turli tomonlaridir. Chunki bunday rivojlanish natijasida organizmning miqdoriy imkoniyatlarida umumiy yuksalish sodir bo'ladi. Lekin baribir yuqorida sanab o'tilgan jismoniy sifatlarning har birini tarbiyalashning o'ziga xos xususiyatlari mavjuddir.

Chaqqonlik-bu faoliyat davomida paydo bo'ladigan kutilmagan shart-sharoitlarga binoan harakat faoliyatini tezlik bilan yangi harakatlarni egallay olish qobiliyatidir. Chaqqonlikni tarbiyalashda harakatlarning uyg'unligini rivojlantirish, ularning sur'ati va ko'lamini, muskullarning zo'riqishi va bo'shashi darajasini bir-biridan farq qilish, shuningdek, vaqtga va joyga moslashib mo'ljal ola bilish mahorati asosida sodir bo'ladi. Chaqqonlikni tarbiyalash uchun aniq harakatlar qilish qobiliyatini rivojlantirish muhimdir. Bundan tashqari, turg'un holatda hamda bir joydan ikkinchi joyga yurib borilayotganda gavdaning muvozanatini saqlay olish chaqqonlik ko'rinishlaridan biri hisoblanadi. Bolalikning maktabgacha yoshida harakat analizatorini rivojlantirishda anchagina siljish ro'y beradi. Bu esa chaqqonlikni asta-sekin takomillashtirib borish uchun imkoniyat yaratadi. Harakatlarni bajarishdagi epchillik ham maktabgacha yoshdagi bolalarda tez rivojlanadigan muhim xususiyatdir.

Epchillik-bu harakatni eng kam vaqt ichida bajara olish qobiliyatidir. U qandaydir bir signalga javob tariqasi bajarilgan harakat tezligiga (harakat reaksiyasi deb ataladigan tezlikka), ayrim harakatlar tezligiga, shuningdek ko'p marta takrorlanayotgan harakatlarning tezligiga bog'liq bo'ladi. Harakatlarning mana shu barcha ta'rif-tavsifi, bog'chadagi kichik yoshdagi bolalardan boshlab to katta guruhdagi bolalarda muntazam mashq natijasida o'sib boradi. Chaqqonlik va epchillikning rivojlanishiga o'yin va mashqlarni muntazam bajarib borish orqali erishiladi. Bunda atrofdagi muhit sharoitning o'zgarishiga qarab shug'ullanuvchilar tezlik bilan javob reaksiyasi berishlari hamda bir harakatdan ikkinchisiga jadallik bilan o'tishlari, tez siljishlari va topshiriqni bajarishlari muhimdir. Turli o'yinlar hamda to'siqlarni engib o'tish, to'xtab-to'xtab, burilishlar bilan bajariladi birdan berilgan signal bo'yicha xilma-xil topshiriqlarni bajarish, hatlab o'tish, engashib-emaklab o'tish bilan bog'liq bo'lgan mashqlar, muvozanat mashqlari, har turli sport o'yinlari va boshqalar mana shunday chaqqonlik va epchillikni o'stiruvchi mashqlar hisoblanadi.

Kuchlilik-bu muskullarni ma'lum darajada zo'riqtira olish qobiliyati bo'lib, chaqqonlik va epchillikni tarbiyalashning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolaning muskullari hali yaxshi rivojlanmagan bo'ladi, uning asab harakati ham hali takomillashmagan, bog'cha bolalari muskullarni kuch bilan ishga solishda aniq farq qilish qobiliyatiga ega emaslar. Bog'cha bolalari uchun, ayniqsa, kichik guruhdagilar uchun shu narsa muhimdirki, ularda rostlovchi muskullarning hayotiy, faoliyatidan ko'ra bukish muskullarining hayotiy faoliyati ortiqroq bo'ladi, bolalar yurish va yugurish vaqtida oyoqlarini yarim bukik holda tutib harakat qiladilar, o'yinlar o'tkazish vaqtida esa, engashib o'tiradilar va hokazo. Shu sababdan bolaning kuch-quvvat sifatlarini rivojlantirayotganda rostlovchi muskullar kuchini ko'paytirishga e'tibor berish, bola gavdasini va oyoq-qo'llarini rostlaydigan, to'g'ri turishga o'rgatadigan mashqlar bajartirish muhim ahamiyatga egadir. Maktabgacha yoshdagi bolalarda kuch-quvvatni tarbiyalashga qaratilgan mashqlar asosan dinamik harakterga ega bo'lishi kerak. Ayni vaqtda bu uzoq vaqt davom etib, asablarni ancha tarang holga keltiradigan bir xildagi zo'riqishlar bilan bog'liq, bo'lmasligi shart. Bundan tashqari kuchni rivojlantirishda zo'r berib kuchlanish zarur bo'lgan mashqlar qo'llanmasligi kerak. Maktabgacha yoshdagi bolalarining kuch-quvvatini tarbiyalash uchun qisqa muddat davom etadigan tezlik-kuch talab qiladigan mashqlar (masalan, bir joyning o'zida turib uzunlikka sakrash, uzoqqa uloqtirish mashqlari), shuningdek, o'z og'irligini ko'tarish bilan bog'liq bo'lgan ba'zi bir mashqlar (engashtirib qo'yilgan va tikka turgan narvonlar, taxtalarga tirmashib chiqish mashqlari, gimnastika skameykasida o'z qo'llari, kuchi bilan tortilish va shunga o'xshash mashqlar)ni bajarish o'rinlidir.

Matonat-bu jismoniy ishni imkoni boricha uzoq vaqt davomida etarli darajadagi jadallikni saqlagan holda bajara olish qobiliyatidir. Matonatni tarbiyalash organizmning turli sistemalarining miqdoriy imkoniyatlarini oshirib borish bilan, asta-sekin sharoitga moslashib borish bilan, oqibat natijada charchashga olib boradigan kuchli zo'riqish bilan uzoq vaqt davom etadigan faoliyat natijasida organizmda paydo bo'ladigan ko'nikish bilan bog'liq bo'ladi. Shuning uchun bolalarda matonatni tarbiyalashda ular organizmiga o'zlari ko'nikib qolgan vazifaga qaraganda yuqoriroq jismoniy ta'sir ko'rsatadigan mashqlar va o'yinlar qo'llaniladi. Maktabgacha yoshdagi kichik guruhlarda matonatni tarbiyalash bilan bog'liq maxsus mashqlar amalga oshirilmaydi. Katta yoshdagi bog'cha bolalarida matonatni tarbiyalash uchun o'yin va mashqlardan foydalaniladi. Bunday o'yin va mashqlarda ancha og'ir, lekin qisqa muddatli jismoniy zo'riqish talab qilinadi. Bunday mashqlarda bolalar diqqat-e'tiborni-ir erga jamlab, mashqlarni takrorlashda etarli darajada uzoq tanaffuslar berib, ularga dam oldirish lozim. Bu yoshdagi bolalarda matonat avvalo yurish, yugurish, sakrash, chang'ida yurish, raq

tushish, suzish va harakatli o'yinlar o'ynash va mustaqil faoliyat ko'rsatish vaqtida rivojlanadi.

2-Mavzu. Jismoniy tarbiya mashg'ulotlarining konspekti va tahlil usullari

Jismoniy tarbiya mashg'ulotining konspekti, bolalarga berilayotgan jismoniy yuklamasini aniqlash maqsadida yurak-qon tomir urishini o'lchash protokoli, jismoniy tarbiya mashg'uloti bo'yicha tajribali jismoniy tarbiya instruktorlar jismoniy tarbiya mashg'ulotining pedagogik tahlili, mashg'uloti zichligini aniqlash maqsadida xronometraj protokoli, pedagogik amaliyot yakunida tinglovchi hisobotni amaliyot rahbariga taqdim etish.

Jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini rejalashtirishda eng avvalo maktabgacha ta'lim muassasalari uchun mo'ljallangan me'yoriy xujjatlar «Maktabgacha ta'limga qo'yilgan Davlat talablari» hamda Takomillashtirilgan «Ilk qadam» tayanch dasturiga asosan bolalar yoshlari doirasida asosiy harakatlar: yurish, yugurish, sakrash, irg'itish-emaklash, to'siqlardan oshib o'tish milliy, harakatli hamda tinch o'yinlarni nomini bilishi va o'ynashi zarur deb ko'rsatilgan. Jismoniy tarbiya yo'riqchisi tomonidan jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini rejalashtirishda yurish, yugurish, sakrash, uloqtirish, tirmashib chiqish, muvozanat mashqlari kabi asosiy harakatlarni izchil ravishda mashg'ulotlarga taqsimlab chiqishda ko'proq qiynaladilar. Ularni rejalashtirish vaqtida faqat mashg'ulot o'tkazish shart-sharoitlarini (xona, asbob-uskuna va boshqalarni), bolalarning tayyorligini hisobga olibgina qolmay, shu bilan birga har bir harakat malakasini izchillik bilan shakllantirishga ham e'tibor berish kerak. Bunga murakkabligi tobora ortib boradigan mashqlar va o'yinlarni ko'proq tanlash orqali erishiladi. Mashg'ulotlar vaqtida asosiy harakatlarning bir-biri bilan maqsadga muvofiqroq ravishda qo'shib olib borishni ko'zda tutish, shuningdek, bolalarning Yuksak darajadagi faolligini ta'minlovchi uYushtirish usullarining qo'llanishi ham katta ahamiyatga egadir. Materialni takrorlash ham muhim rol o'ynaydi. Ayni bir harakatni taxminan oradan 3-4 hafta o'tgandan keyin ba'zi-bir takrorlab turgan ma'qul. Har bir o'rganiladigan harakat turiga bir nechta (ikki-to'rt) izchil bajariladigan mashg'ulotlarni kiritish maqsadga muvofiqdir.

Odatda mashg'ulotlar uchun bolalarni o'qitishning har xil bosqichlari bilan bog'liq bo'lgan mashqlar tanlanadi: topshiriqlarni biri ko'pincha yangi mashqlarni o'rganish bilan èki harakat qismlarini takrorlash bilan bog'liq bo'ladi, boshqalari esa malakani mustahkamlash va takomillashtirishga qaratilgan bo'ladi. Materialni taxminiy taqsimlash rejasida har bir èsh gruppasi uchun faqat asosiy harakatlar bilan bog'liq topshiriqlar, shuningdek, harakatli o'yinlar berilgan. Mashg'ulotlar uchun belgilangan umumiy rivojlanish mashqlarining mazmuni mashg'ulotning asosiy maqsadiga bo'ysundiriladi, u bolani asosiy mashqlarga tayèrlamog'i

lozim. Yosh guruxlari uchun tuzilgan rejada haftasiga ikki marta o'tkaziladigan mashg'ulotdan faqat bittasining mazmuni berilgan. Bu rejalashtirishda birmuncha o'zgartirishlar bo'lishi uchun kerakli erkinlikni ta'min etadi. Ikkinchi mashg'ulot birinchi mashg'ulotning mazmunini to'la takrorlashi ham mumkin. Bolalar o'tgan mashg'ulotlarda o'rgangan harakatlarni takrorlab, faol ravishda mashq qilib olishlariga imkon yaratish uchun shunday qilinadi. Ba'zan ikkinchi mashg'ulotning mazmuni qisman o'zgartiriladi: mashg'ulotning kirish qismiga boshqa yangi mashqlar kiritiladi yoki umumrivojlantiruvchi mashqlar uchun boshqa mashq tanlanadi, asosiy harakatlarga o'rgatish vaqtida bolalar jamoasi uYushtirish uslubi o'zgartiriladi. Boshqa mashg'ulotdagi asosiy harakatlar qo'shimcha takrorlash materiali sifatida kiritiladi. Maktabgacha ta'lim muassasasida jismoniy tarbiya mashg'ulotlari barcha guruhlarda haftasiga 2 marotaba bolaning fiziologik holatiga qarab hafta kunlariga bo'linadi. Maktabgacha ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya yo'riqchisi mashg'ulotlarni bolalarning e'sh xususiyatlaridan kelib chiqqan xolda shakllantiradi.

Maktabgacha ta'lim muassasasida jismoniy tarbiya tizimida - kun tartibi, an'anaviy mashg'ulotlar, mujassam mashg'ulotlar, chiniqtirish (tabiiy va sun'iy), jismoniy mashqlar, madaniy gigienik ko'nikmalar, ertalabki va kechki soatlar, quvnoq daqiqalar, davolovchi gimnastika, ritmika, sport o'yinlari tashkil etiladi.

Jismoniy tarbiya darslari tarkibi

Jismoniy tarbiya darslari uch qismdan iborat buladi. O'quvchilarni jismoniy tarbiya darsiga jismonan tayyorlaydigan, organizmni jismoniy yuklamalarga moslashtiradigan birinchi qism-darsning kirish qismi. Darsning asosiy vazifasini hal etuvchi, jismoniy mashqlarga o'rgatuvchi qism – darsning asosiy qismi. Organizmga tushgan yuklamalar ta'sirini susaytirish, o'quvchilar darsdagi faolligini baholash va keyingi darslarga tayyorlash qismi- darsning yakuniy qismi.

Darsning kirish qismi:

O'quvchilar saflanadilar, salomlashiladi. O'qituvchi darsning vazifasini tushuntirgach, o'quvchilar saf mashqlarini bajaradilar (o'ng-ga, chap-ga, orqa-ga burilishlari v.h.k.) yurish va yugurish mashqlari bajariladi. Safda, qatorda, doirada turgan holda, buYumlar bilan yoki buyumlarsiz, umumrivojlantiruvchi mashqlar-URM (razminka) bajariladi.

Darsning asosiy qismi:

Dars asosiy qismida o'qituvchi o'rganiladigan jismoniy mashq-harakatni og'zaki holda tushuntiradi va amalda bajarib ko'rsatadi. Mashqni qismlarga bo'lib bajarish va butun holatda bajarish usullarini ko'rsatadi. O'quvchilarning har birini mashqni bajarishini nazorat qiladi, xotalarni tuzatish uchun kerakli tavsiyalar

beradi. Mashqni bajarish malaka va kunikmalari shakllangunga qadar o'quvchilarni mashqni takrorlashlarini nazorat qilib turadi.

Darsning yakuniy qism:

O'quvchilar organizmiga tushgan jismoniy yuklamalar ta'sirin susaytirish maqsadida harakatli o'yinlar, nafas olish mashqlari bajariladi yoki o'rganilgan mashq tug'risida nazariy ma'lumotlar beriladi. Shunindek darsda faol qatnashgan o'quvchi rag'batlantiriladi, sust qatnashgan o'quvchiga esa tavsiyalar beriladi. O'quvchilarning har biriga o'ziga mos bo'lgan uyga vazifalar beriladi. O'rganilgan mashqni takomillashtirish usullari hamda jismoniy fazilatlarni rivojlantirish tavsiyalari tushuntiriladi.

1. Jismoniy tarbiya darsning mazmuni

2. Jismoniy tarbiya darsining tuzilishi

Jismoniy tarbiya darsining mazmuni dars mashg'ulotlarini sifatini belgilovchi to'rtta asosiy komponentning umumiylikda ifodalanadi. Bu elementlar o'zaro uzviy bog'langan va **darsning xarakterli komponentlari** deb ataladi, ular:

1.1. **darsning tarkibiga kiritilgan jismoniy mashqlar.** Darsning mazmunining eng yirik xarakterli komponentidir. Lekin bunday tushuncha bir tomonlama bo'lib, tarbiyalash, sog'lomlashtirish, bilim berish vazifalarini hal qilishda shug'ullanuvchilar uchun faoliyat predmeti bo'lib xizmat qiladi. Mashqlar darsning umumlashtirilgan predmetining mazmuni, boshqa ma'noda dars mazmunining bir qirrasini xolos.

1.2. tavsiya qilingan mashqlarning bajarish bilan bog'liq bo'lgan **o'quvchilarning darsdagi faoliyati dars mazmunining navbatdagi yirik komponentlaridan biri.** Bu komponent shug'ullanuvchini turli ko'rinishdagi, intellektual va jismoniy faoliyatdan iborat bo'lib, ular: pedagogni eshitish, ko'rsatilayotgan mashqni e'tibor bilan kuzatish, harakat faoliyati orqali hosil bo'lgan tasavvurni ustida fikr yuritish, bajarilishi lozim bo'lgan faoliyatni loyihasini fikran tuzish, uni bajarish, o'z harakatlarini nazorat qilish va baholash, vujudga kelgan muammolarni pedagog bilan birgalikda muhokama qilish, o'z hissiyatini va kayfiyatini nazorat qila olish, vujudga kelgan emotsionallikni boshqarish va.h.k.lardir. Shug'ullanuvchilarini dars vazifasini hal qilish bo'yicha barcha faoliyatlari dars mazmuni asosini tashkil qiladi.

1.3. **pedagogning faoliyati dars mazmunining navbatdagi komponenti bo'lib,** quyidagicha holatlarda namoyon bo'ladi. Uyga vazifa berish va uni tushuntirish, darsning aniq vazifasini bayon qila bilish va uni hal qilishni tashkillash, shug'ullanuvchilarni doimiy nazoratda ushlash, ularni faoliyatini tahlil qilish, shuningdek shug'ullanuvchilarning faoliyatini lozim bo'lgan yo'lga burish, ular orasidagi munosabatlarni o'zining diqqat markazida ushlash va

faoliyatlarini yo'naltirish, boshqarish, nazorat qilishdek ta'lim-tarbiya jarayonida ijobiy rol o'ynaydigan muhim asosiy holatlarni o'z ichiga oladi.

1.4. Shug'ullanuvchilar organizmida dars tarkibidagi mashqlarni bajarishda sodir bo'ladigan **fiziologik, psixologik, biomexanik va boshqa o'zgarishlar** dars mazmunining navbatdagi yirik xarakterli komponentlaridan biri hisoblanadi. Malakalarni shakllanishi orqali rejalashtirilgan, ularning natijasidagi o'zgarishlar, shakllangan nazariy va amaliy bilimlar, uddalash, harakat malakasi va uning avtomatlashuvi orqali sodir bo'ladigan yashirin (latent) davr darsning mazmunining to'rtinchi komponenti hisobiga sodir bo'ladi. Bunda o'qituvchi faoliyati va o'quvchilar faoliyatining samarasi yashiringan bo'ladi. Rejalashtirilgan o'quv tarbiyaviy ishlarni sodir bo'lmoqdam yoki yo'qligi joriy nazorat qilinib, pedagogik faoliyat keyinchalik qanday davom ettirilishi lozimligi uchun yo'riqnomalar tayyorlanadi.

2. Jismoniy tarbiya darsining tuzilishi

Jismoniy tarbiya darslari bilan bog'liq masalalarning eng muhimi uni qanday tuzish masalasidir. Darsni tuzilish qonuniyatlari haqidagi gapirishdan avval uni qanday **strukturaviy birliklardan** tashkil topishini belgilab olish va aniqlash kerak bo'ladi. Avvaligi dars haqida fikr bildirayotib uni tarkibiga kiritilgan jismoniy mashqlar, ularni ketma-ketligi va davomiyligiga qarab «**dars sxemasi**» atamasi qo'llanila boshlandi. Keyinchalik darsga qo'yilgan vazifalar va ularni hal qilish uchun tanlangan jismoniy mashqlar ularning me'yori (dozasi)ga qarab «**dars rejasi**» degan atamalar qo'llanildi. «**Darsni strukturasi**» degan atama **birinchi marotaba V.V. Belinovich tomonidan (1939) qo'llanildi va o'rinli ravishda darsni tuzilishi deb to'g'ri nomlandi.** Belinovich tuzilishi darsning vazifalari va jismoniy tarbiyani mazmuniga qarab belgilanishini uqtiradi. N.N. Efremov (1959) birinchi marotaba «darsning tuzilishi» degan tushunchaga ta'rif berishga urindi va **dars strukturasi deganda mashg'ulotni tarkibiy (kirish, tayyorlov, asosiy va yakunlov) qismlarini o'zaro joylashishi va munosabatini nazarda tutdi xolos.** K.A. Kuzminaning fikricha (1960) esa **darsning tuzilishi – bu uni qismlarining soni, ularning ahamiyati va mazmuni, ketma-ketligi va darsni har bir qismini davomiyligi deb ta'rif berdi.** Darsni tuzilishiga oid maxsus ilmiy-uslubiy adbiyotlarda turlicha fikrlar mavjud. Lekin hozirgi kunda bu baxslarga chek qo'yilgan va darsni tuzilishini uch qismli tarkibga ega deb qabul qilingan.

Dars tuzilishining loyihasi alohida, darslarni tuzishda foydalaniladigan **dars konspekti orqali ifodalanadi.** Darsni tuzilishi o'qituvchini darslarga mashqlarni oqilona tanlashga, materiallarni to'g'ri joylashtirish va darsdagi Yuklamani me'yorini aniq belgilashga yordam beradi.

Darsning tuzilishi dastur materiallarini belgilangan vazifa asosida izchil o'rganishni yo'lga qo'yadi. Dars uchun rejalashtirilgan vazifalarni hal qilishda

qo'llaniladigan ta'limning usuliyatiga aniqlik kiritadi va uni qo'llash uchun darsning qismlari yoki ularning ayrim bo'laklaridan qanday foydalanish lozimligini belgilaydi.

Jismoniy tarbiya darsida har qanday pedagogik vazifalarni hal etish ko'pincha shug'ullanuvchilar organizmidan ma'lum darajadagi zo'riqishini vujudga keltiradi, shuning uchun bu ishga organizm tegishli darajada tayyor bo'lishi kerak.

Buyuk rus olimi I.P. Pavlov organizmni qiyin vazifalarni hal etishga tayyor bo'lishi zarurligini uqtirib, mashqni asta-sekinlik bilan takrorlash ma'lum fiziologik qoidalarga asoslanishni taqazo etadi deb uqtirdi. Bu ko'rsatma o'qituvchi zimmasiga shug'ullanuvchilardan katta kuch talab qiladigan pedagogik vazifalarni hal qilish darsning boshida emas ma'lum tayyorgarlikdan so'ng, mashg'ulotlarni, darslarni oxirida hal qilinishi lozimligini, shu mashg'ulotdagi asosiy vazifalarga shug'ullanuvchilarning organizmini uYushtirish, zarur kayfiyatni vujudga keltirish va belgilangan vazifalarni bajarishga, mashqni o'rganishga bo'lgan ishtiyoqni shakllanishini mashg'ulotlar davomida talab darajasiga ko'tarish lozimligiga to'xtaldi.

O'quvchilar tomonidan asosiy vazifalarni hal qilish ko'pincha shug'ullanuvchi zo'r berayotgan ya'ni uni faolligini oshgan davriga to'g'ri kelishligini amaliy ahamiyati katta. Ularning organizmi nisbatan katta zo'riqish va kuchli emotsiional holatdan vazmin holatga birdan o'ta olmaydi. Shunga ko'ra darsni tuzishda xotirjam holatga o'tish va mashg'ulotlarni uYushtirilgan ravishda tugallash maqsadga muvofiq bo'ladi. Har bir dars uch qismli tarkibga ega ekanligi haqida yuqorida fikr bildirdik va ular **tayyorlov, asosiy va yakunlov** qismi deb nomlanadi.

Turli xil yoshdagi tarbiyalanuvchilar bilan o'tkazilgan jismoniy tarbiya darslarining tayyorlov, asosiy va yakunlov qismlarini taqqoslash natijalari tahlili

Birinchidan, qonuniy ravishda ularni bir-biridan farqlanishini ko'rsatdi. **Ikkinchidan**, jismoniy tarbiya darslarining bir xil yoshdagilar chegarasida o'tkazilgan asosiy qismlari darsning turiga bog'liq.

Uchinchidan, darsning tayyorlov, asosiy, yakunlov qismlarini davomiyligini o'zgarishi tarbiyalanuvchilarning yoshiga bog'liq.

Kichik guruhlarda darsning asosiy qismlari nisbatan bir xilda, ya'ni tayyorlov va yakunlov qismlarining davomiyligi asosiy qismning davomiyligidan ozgina farqlanadi xolos. Katta guruhlarda esa tayyorlov, yakunlov qismlarining davomiyligi asosiy qismning davomiyligidan keskin farq qiladi. Kichik guruhlarda bolalar psixologiyasi va ularning fiziologik xususiyatlari, jismoniy kuchining ozligi darsning asosiy qismida ularni organizmini va diqqatini oldinda turgan qiyin harakat faoliyatlarini bajarishga tayyorlash uchun ko'p vaqt sarflashni talab qiladi. Bundan tashqari tayyorlov mashqlarini tushuntirish va ko'rsatish katta

yoshdagilarga nisbatan sekin olib borilishi darsni qismlarida o'qituvchi tomonidan ko'p vaqt sarflashni taqazo etadi. Kichik yoshdagilarda yakunlov qismini asosiy qism hisobidan uzunroq bo'lishining, sababi navbatdagi darsga o'tishga oldindan tayyorlanish lozimligidan kelib chiqadi va shu bilan asoslanadi. O'rta va Yuqori sinfga o'tgan sari darsning tayyorlov va yakunlov qismlari uchun sarflangan vaqt qonuniy ravishda kamayib boradi. Chunki o'quvchilarda turli xildagi saf va tayyorlov mashqlarini aniq bajarish malakasi Yuqori bo'ladi. Tushuntirish va ko'rsatish uchun kam vaqt sarflanadi, asosiy qismida o'quvchilar tomonidan kata hajmdagi Yuklama bilan jismoniy mashqlarni bajarish uchun talab vujudga keladi, shunga ko'ra tayyorlov asosiy yakunlov qismlarining turli xil yoshdagi tarbiyalanuvchilar bilan o'tkazilishi turlicha va o'zlarining xususiyatlari bilan farqlanadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida jismoniy tarbiya dars ishlanmalari 2 hil usulda tashkil etiladi

MTT dagi an'anaviy jismoniy tarbiya mashg'ulotlari quyidagi qismlardan iborat

1.Tashkiliy qism

Mashg'ulot-ning nomi

Mashg'ulot-ning maqsadi.

Mashg'ulotga kerakli jixozlar

Kirish

Xona bo'ylab yurish mashqlari

Asosiy qism

Umumrivojlantiruvchi mashqlar

Asosiy harakat turi

Harakatli o'yin

Yakuniy qism

Kam harakatli o'yin 2-ta

Nafas olish mashqlari.

MTT dagi noananaviy jismoniy tarbiya mashg'ulotlari quyidagi qismlar ketma-ketligida yoziladi

1.Tashkiliy qism

Mashg'ulotning nomi

Mashg'ulotning maqsadi.

Mashg'ulotga kerakli jixozlar

Kirish

Xona bo'ylab Yurish mashqlari

Asosiy qism

2-3ta harakatli o'yin (xaftaning birinchi qismida o'rgatilgan asosiy harakat turini mustaxkamlovchi o'yinlar tanlanadi)

Yakuniy qism

Kam harakatli o'yin 2-ta

Nafas olish mashqlari.

Maktagacha ta'lim muassasalarida noananaviy jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini 2-3 turdagi tashkil etish mumkundir Yuqorida ko'rsatilib o'tilgan noananaviy mashg'ulotga o'xshamaydigan tarzda tashkil etiladi. Noannavi jismoniy tarbiya mashg'ulotlari ertak asosida tashkil etiladigan mashg'ulotlar uchun bolalarning e'ish xususiyatini inobatga olgan xolda bolalarga o'rgatmoqchi bo'lgan asosiy xarakatni bajarishga mos keluvchi ertakni tanlana «Bo'g'irsoq» «Echki bolalari» «Qizil shapkacha» va jismoniy tarbiya yo'riqchisi tamonida asosiy harakatlarni o'rgatish uchun o'ylab topilgan ertaklar asosida tashkil etiladigan noananavi jismoniy tarbiya mashg'uloti deb xisoblaniladi.

MTT dagi noananaviy jismoniy tarbiya mashg'ulotlari quyidagi qismlar ketma-ketligida yoziladi

1.Ertakli mashg'ulotni tashkiliy qism

Ertakli mashg'ulotning nomi

Ertakli mashg'ulotning maqsadi.

Ertakli mashg'ulotga kerakli jihozlar

Ertakli mashg'ulotning borishi

Maktabgacha ta'lim tashkilotlardagi jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini shakllantirishda yuqorida ko'rsatilgan ketma-ketlikda bolalarni yosh xususiyatidan kelib chiqqan holda yoritiladi.

3-Mavzu. Jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini o'tkazishda bolalar havfsizligini ta'minlash chora tadbirlari va havfsizlik qoidalari

Jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini o'tkazishda bolalar havfsizligini ta'minlash chora tadbirlari va havfsizlik qoidalari. Sog'lomlashtirish-jismoniy tarbiya tadbirlarida xavfsizlik qoidalari.

Jismoniy tarbiya darslarida xavfsizlik qoidalariga rioya qilish , shubhasiz boqcha instrutorlari o'quv jarayonini tashkil etish tizimida muhim o'rinlardan birini egallaydi. Umumiy qabul qilingan me'yorlar va standartlarga rioya qilgan holda, jismoniy tarbiya instruktorelari har doim xavfsizlik qoidalarini aniq bilishi kerak. Xavfsizlik choralariqa rioya qilgan holda instruktore ham, tarbiyalanuvchi ham jismoniy tarbiya va sportda o'quv va darsdan tashqari mashg'ulotlarni tashkil etishda har bir jismoniy tarbiya instruktore uchun majburiy bo'lgan barcha belgilangan qoidalarga rioya qilishlari shart.

Jismoniy tarbiya instruktori jismoniy tarbiya va sport, sport musobaqalari va sport tadbirlarini o'tkazishda xavfsizlik standartlari va qoidalariga rioya qilishlari va bolalarning sog'lig'iga zarar etkazmasliklari shart.

Jismoniy tarbiya instruktoriga bevosita tegishli bo'lgan umumiy xavfsizlik talablari quyidagi talab qilinadigan qismlarni o'z ichiga oladi.

1. Jismoniy tarbiya instruktori o'quvchilar hayoti va sog'lig'i xavfsizligi uchun javobgardir.

2. Jismoniy tarbiya instruktori:

mehnatni muhofaza qilish bo'yicha kurslarni (5 yilda kamida 1 marta) olish;

gimnastika asboblari va jihozlari sinashda qatnashish;

o'quv jarayoni uchun sharoitlarni yaxshilash bo'yicha takliflar kiritish;

kundalik hayotda mehnatni muhofaza qilish qoidalarini o'rganayotgan tinglovchilar tomonidan o'rganishni tashkil qilish va boshqalar.

3. Jismoniy tarbiya instruktori bilishi kerak:

har bir tarbiyalanuvchining tayyorligi va funksional imkoniyatlari;

tibbiy ko'rik natijalari bo'yicha o'quvchilar biriktirilgan tibbiy guruh;

kasallikdan keyin shifokor tomonidan jismoniy mashqlardan ozod qilingan o'quvchilarni va darsda bo'lmagan o'quvchilarni belgilash uchun.

Sport-sog'lomlashtirish va sport inshootlarining mansabdor shaxslari sport va musobaqalar o'tkaziladigan joylarni xavfsizlik qoidalarini va sanitariya-gigiena me'yorlariga muvofiq jihozlashlari va jismoniy tarbiya va sport, sport musobaqalari va sport tadbirlarini o'tkazishda sog'liqni saqlash uchun javobgar bo'lishlari shart. Jismoniy tarbiya darslarida umumiy xavfsizlik choralariga jismoniy tarbiya darslarini texnik, sanitariya, tashkiliy, fazoviy, tibbiy va boshqa jihozlarga qo'yiladigan talablar ham kiradi.

1. Sport zali jismoniy tarbiya shakllariga mos kelishi kerak. Sport zallarining binolari, ularda joylashgan jihozlar va qoidalarini, shuningdek bokchalar uchun elektr xavfsizligi va yong'in xavfsizligi qoidalarini talablariga javob berishi kerak. Sport zali odatda birinchi qavatda joylashgan bo'lishi lozim. Uning o'lchamlari jismoniy tarbiya dasturini to'liq amalga oshirishni va sportdan tashqari mashg'ulotlarni o'tkazish imkoniyatini ta'minlaydi. Maxsus talablar pollar, devorlar, shiftlar, yoritish, sport zallarining ventilyatsiyasi, shkaflar, echinish xonalari mavjudligi, evakuatsiya rejasi, yong'in qarshi vositalar to'plami va hk.;

2. Ho'l latta bilan tozalash kuniga 2 marta amalga oshirilishi kerak;

3. Uskunalar yaxshi holatda bo'lishi kerak. Yopiq yoki ochiq mashg'ulot maydonlariga o'rnatilgan barcha sport anjomlari va jihozlari yaxshi holatda va ishonchli tarzda o'rnatilishi kerak. O'rnatishning ishonchliligi va inventarizatsiya va jihozlarning sinov natijalari maxsus jurnalda qayd etilishi kerak. Uskunalarni

joylashtirish har bir gimnastik uskuna atrofida xavfsiz joyni ta'minlashi kerak. Shuningdek, boshqa sport anjomlari va jihozlariga alohida talablar mavjud.

4. Agar sport zalida biron bir muammo bo'lsa, unda mashg'ulotlar o'tkazilmaydi;

5. Har bir darsdan keyin xonani kuzatish kerak;

6. Sport jihozlarida mashqlarni o'qituvchisiz yoki uning yordamchisiz, shuningdek havfsizlikni qoydalarini saqlamastan bajarmang;

7. Tarbiyalanuvchilarni o'qitishning qulayligi, izchilligi va mashqlar va yuklarning o'quv dasturiga muvofiqligi prinsiplariga rioya qiling; kuchli shamol, past harorat va yuqori namlik bilan isinish va unga ajratilgan vaqtni ko'paytirish;

8. Tarbiyalanuvchilar charchoq alomatlarini ko'rsatganda stressni kamaytirish yoki dam olish vaqtini ko'paytirish; tarbiyalanuvchilar murakkab texnik elementlarni tugatganlarida xavfsizligini ta'minlash;

9. Tarbiyalanuvchilarning jismoniy tarbiya darsi davomida ko'rsatmalar va xulq-atvor qoidalariga rioya qilinishini nazorat qilish va qo'pol qoidabuzarlik uchun tarbiyalanuvchilarni o'quv jarayoniga jalb qilish to'g'risida qaror qabul qilish;

10. Tarbiyalanuvchilarni dars o'tish joyidan tartib bilan chiqarish ;

11. Dars o'tkaziladigan joyni yaxshilab tekshirib ko'ring, chiroqlarni o'chiring, barcha yordam xonalari va sport zallarini yoping;

